QADRIYATLARNING AKSIOLOGIK VA IJTIMOIY MOHIYATI

N.Choriyeva
TerDU 2-kurs tayanch doktaranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada qadriyatlarning aksiologik va ijtimoiy mohiyati lingvodidaktik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Qadriyat tushunchasining falsafiy asoslari, uning milliy-madaniy mazmuni hamda til orqali ifodalanish mexanizmlari yoritiladi. Shuningdek, milliy qadriyatlarning leksik-semantik, frazeologik va diskursiv-pragmatik darajalarda namoyon bo'lish xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Ona tili ta'limida qadriyatlarni o'qitishning nazariy-metodologik asoslari hamda ularning o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasi, interpretativ tafakkuri va aksiologik pozitsiyasini shakllantirishdagi o'rni ochib beriladi. Tadqiqot natijasida qadriyatga yo'naltirilgan lingvodidaktik modelni ta'lim jarayoniga integratsiya qilishning ahamiyati asoslanadi.

Kalit so'zlar: qadriyat, aksiologiya, milliy qadriyatlar, lingvodidaktika, ona tili ta'limi, til va madaniyat, leksik-semantik daraja, frazeologik birliklar, paremiologiya, diskurs, pragmatika, kommunikativ kompetensiya, aksiologik yondashuv, milliy mentalitet, madaniy meros.

Аннотация. В данной статье аксиологическая и социальная сущность ценностей рассматривается с лингводидактической точки зрения. Освещаются философские основы понятия ценности, её национально-культурное содержание и механизмы выражения посредством языка. Также анализируются особенности проявления национальных ценностей на лексико-семантическом, фразеологическом и дискурсивно-прагматическом уровнях. Раскрываются теоретико-методологические основы обучения

ценностям на уроках родного языка, а также их роль в формировании коммуникативной компетенции, интерпретативного мышления и аксиологической позиции учащихся. В результате исследования обосновывается значимость интеграции лингводидактической модели, ориентированной на ценности, в образовательный процесс.

Ключевые слова: ценность, аксиология, национальные ценности, лингводидактика, обучение родному языку, язык и культура, лексико-семантический уровень, фразеологические единицы, паремиология, дискурс, прагматика, коммуникативная компетенция, аксиологический подход, национальный менталитет, культурное наследие.

Abstract. This article examines the axiological and social essence of values from a linguodidactic perspective. It explores the philosophical foundations of the concept of value, its national and cultural content, and the mechanisms of its expression through language. The study also analyzes the manifestation of national values at the lexical-semantic, phraseological, and discursive-pragmatic levels. Furthermore, it reveals the theoretical and methodological foundations of teaching values in mother tongue education and highlights their role in developing students' communicative competence, interpretative thinking, and axiological position. The research substantiates the importance of integrating a value-oriented linguodidactic model into the educational process.

Keywords: value, axiology, national values, linguodidactics, mother tongue education, language and culture, lexical-semantic level, phraseological units, paremiology, discourse, pragmatics, communicative competence, axiological approach, national mentality, cultural heritage.

Milliy qadriyatlar masalasi zamonaviy pedagogika, lingvistika va falsafaning kesishgan nuqtasida turuvchi murakkab aksiologik hodisa sifatida baholanishi ayni haqiqatdir. Qadriyat tushunchasining mohiyatini anglash, ayniqsa, ona tili ta'limida milliy-ma'naviy komponentni metodik jihatdan chuqurroq asoslash uchun nazariy tayanch vazifasini bajaradi. Shu bois mazkur faslda qadriyatning aksiologik tabiati, uning ijtimoiy-madaniy mazmuni hamda til orqali ifodalanish mexanizmlari lingvodidaktik nuqtai nazardan tahlil qilishni maqsad qilib belgiladik.

Aksiologiya – qadriyatlar haqidagi falsafiy ta'limot sifatida XIX asr oxiri – XX asr boshlarida shakllangan. Bu yo'nalish asoschilaridan biri sifatida Vilgelm Vindelband "falsafani qadriyatlar tug'risidagi umumiy fan sifatida tushuntiradi."[1] U qadriyatni bilish jarayonidan ajratilgan holda emas, balki baholash kategoriyasi sifatida talqin qiladi. Qadriyat – inson ongida voqelikni me'yoriy baholash mezoni sifatida shakllanadi. Geynriz Jon Rikert qadriyatlarni madaniyatning asosiy belgilovchi omili sifatida ko'rib, tarixiy jarayonlar qadriyatlar asosida talqin qilinishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, "insoniyat tajribasi bevosita qadriyat mezonlari orqali tizimlashtiriladi."[2] Maks Ferdenand Sheler esa qadriyatlarni ierarxik tizim sifatida ko'rsatadi: "hayotiy qadriyatlar, estetik qadriyatlar, axloqiy qadriyatlar va ruhiy qadriyatlar. Mazkur ierarxiya pedagogik jarayonda ham muhim ahamiyatga ega, chunki o'quvchi shaxsida qadriyatlar bosqichma-bosqich shakllanadi."[3] Lingvodidaktika nuqtai nazaridan qaraganda, qadriyat – bu semantik birlik emas, balki mazmuniy-kontseptual kategoriyadir. U til birliklari orqali ifodalanadi, ammo tilning o'zi bilan cheklanmaydi. Qadriyat – semantika, pragmatika va diskurs darajasida namoyon bo'luvchi kompleks hodisadir. Shunday

[1] Фалсафа қомусий луғат. Т: Шарқ-2004 — 74-бет.
[2] https://plato.stanford.edu/entries/heinrich-rickert/ (Murojaat sanasi: 24.02.2026-yil soat:11:47)
[3] https://www.britannica.com/biography/Max-Scheler (Murojaat sanasi: 24.02.2026-yil soat:11:47)

qilib, aksiologik jihatdan milliy qadriyatlar quyidagi xususiyatlarga ega: me'yoriylik (normativlik), baholovchilik (evaluativlik), idealga yo'naltirilganlik, ijtimoiy-madaniy shartlanganlik, shaxs shakllantiruvchi xarakter. Bu xususiyatlar ona tili ta'limida qadriyatni faqat mavzu sifatida emas, balki didaktik prinsip sifatida ko'rish zaruratini keltirib chiqaradi.

Milliy qadriyatlar jamiyatning tarixiy tajribasi, mentaliteti, urf-odatlari va ijtimoiy munosabatlari asosida shakllanadi. Ular madaniyatning yadrosi bo'lib, avloddan-avlodga til vositasida uzatiladi. Til va madaniyat o'zaro chambarchas bog'liq ekanligini atoqli nemis faylasufi va tilshunosi Vilgelm fon Gumboldt "madaniyatning muhim belgisi sifatida madaniyatning milliyligini e'tirof etadi. Milliylikning tilda ifodalanishini esa tilning millat uchun o'ziga xos ichki ifoda shakli ekanligida deb izohlaydi. Ichki shaklni esa "milliy ruh", ya'ni xalq madaniyatining ifodachisi deb biladi"[4]. U tilni "xalq ruhi"ning ifodasi sifatida talqin qiladi. Demak, til birliklari – milliy qadriyatlarning tashuvchisi deb bemalol hisoblashimiz mumkin. Amerikalik tilshunos va nazariyotchi olimlar Edvard Sepir va Benjamin Lee Uorf tomonidan ilgari surilgan lingvistik nisbiylik nazariyasiga ko'ra, "til inson tafakkurini shakllantiradi. Shu nuqtai nazardan, milliy qadriyatlar til orqali ongda strukturaviylashadi."[5] Shu bois, lingvistik nisbiylik nazariyasi nuqtai nazaridan qaralganda, til hodisasi nafaqat voqelikni ifodalovchi vosita, balki uni konseptuallashtiruvchi, tasniflovchi va baholovchi kognitiv mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Demak, milliy qadriyatlar til birliklari — leksik-semantik tizim, frazeologizmlar, metaforalar, diskurs markerlari va kommunikativ modellar orqali ongda tizimlashgan holda, avloddan-avlodga uzatiladigan mental-madaniy modelni shakllantiradi. Natijada til milliy tafakkur arxitekturasini barpo etuvchi,

[4] Usmonova Sh. Tarjimaning lingvomadaniy aspektlari. – Toshkent, 2015. – Б. 62-63.
[5] https://plato.stanford.edu/entries/linguistics/whorfianism.html (Murojaat sanasi: 24.02.2026-yil soat:11:54)

qadriyatlarni kodlovchi va ularni ijtimoiy ongda barqarorlashtiruvchi asosiy semiotik tizim sifatida maydonga chiqishi tabiiy jarayondir. Madaniyatni "ma'no tizimi" sifatida talqin qilgan Amerikalik antropolog Klifford Jeyms Geertz qadriyatlarni ijtimoiy ramzlar tizimi orqali ifodalangan ma'naviy kod sifatida izohlaydi. Bu yondashuv lingvodidaktik jihatdan muhim: o'quvchi matnni o'qir ekan, u nafaqat axborotni, balki madaniy-kodlangan qadriyatni ham o'zlashtiradi.[6] Milliy qadriyatlarning ijtimoiy-madaniy determinantlari quyidagilardan iborat: tarixiy tajriba, diniy-ma'naviy qarashlar, urf-odat va an'analar, ijtimoiy institutlar, milliy mentalitet. Ona tili darslarida maqollar, matnlar, rivoyatlar, frazeologizmlar aynan shu determinantlarning lingvistik aksidir, degan xulosaga kelish mumkin.

Lingvodidaktik nuqtai nazardan, milliy qadriyatlarning til birliklarida ifodalanishi ko'p qatlamli va sistemaviy xarakterga ega bo'lib, u semantik, frazeologik hamda diskursiv-pragmatik darajalarda namoyon bo'ladi. Qadriyatning til orqali aktualizatsiyasi bir martalik hodisa emas, balki nutq faoliyati jarayonida doimiy ravishda qayta ishlab chiqiladigan aksiologik mexanizmdir.

1. Leksik-semantik daraja

Leksik-semantik darajada qadriyatlar to'g'ridan-to'g'ri aksiologik yuklama bilan tavsiflanadigan so'zlar orqali ifodalanadi. "Vatan", "or-nomus", "mehr", "sadoqat", "halollik", "burch", "sharaf", "matonat" kabi leksemalar o'z semantik strukturasida baholovchilik komponentini saqlaydi. Bunday birliklarda denotativ ma'no bilan bir qatorda konnotativ va evaluativ ma'no ham mavjud bo'ladi. Masalan, "vatan" so'zi lug'aviy ma'noda muayyan hududni bildirsa-da, nutq jarayonida u milliy o'zlik, tarixiy xotira, fidoyilik, mas'uliyat kabi aksiologik komponentlarni faollashtiradi. Demak, leksik-semantik darajada qadriyat so'zning

[6] https://www.britannica.com/biography/Clifford-Geertz (Murojaat sanasi: 24.02.2026-yil soat:12:24)

semema tuzilishida joylashgan baholovchi mikrokonponentlar orqali namoyon bo'ladi.

Lingvodidaktik jihatdan bu daraja o'quvchilarda:

- so'zning aksiologik semasini ajratish
-konnotativ ma'noni aniqlash
-baholovchilikni kontekst asosida tahlil qilish
-ko'nikmalarini shakllantirishni talab qiladi.

Shu bois ona tili darslarida leksik tahlil jarayoni faqat sinonimik yoki morfologik tahlil bilan cheklanmasdan, aksiologik komponentni aniqlashga ham yo'naltirilishi zarur.

2. Frazeologik va paremiologik daraja

Frazeologik va paremiologik birliklar milliy qadriyatlarning siqilgan, kodlangan diskurs shaklidir. Maqollar, matallar, iboralar, barqaror birikmalar – xalq tajribasining aksiologik kondensati hisoblanadi. Masalan, "Yaxshilik qil, dengizga tashla", "Halol mehnat – sharaf kaliti", "Elga xizmat – oliy saodat" kabi birliklar ijtimoiy-axloqiy idealni umumlashtirilgan shaklda ifodalaydi. Bu birliklarda qadriyat ochiq deklaratsiya shaklida emas, balki obrazli va metaforik konstruksiya orqali beriladi.

Frazeologik birliklarning asosiy xususiyati shundaki, ular:

-ijtimoiy norma va bahoni ifodalaydi,
-xulq-atvor modelini taklif qiladi,
-kommunikativ vaziyatda tayyor aksiologik formula sifatida ishlatiladi.
-Lingvodidaktik jihatdan bu darajada o'quvchilar:
-maqol va iboraning semantik asosini ochish,
-yashirin aksiologik xulosani aniqlash,

-metaforik obraz orqali berilgan qadriyatni tushuntirish malakalarini egallashlari lozim. Bu bosqich o'quvchining interpretativ tafakkurini rivojlantiradi.

3. Diskursiv-pragmatik daraja

Qadriyatlarning eng faol va dinamik namoyon bo'lish shakli diskursiv-pragmatik darajada kuzatiladi. Bu yerda qadriyat til birliklarining lug'aviy ma'nosida emas, balki nutqiy vaziyat, intonatsiya, kommunikativ maqsad va ijtimoiy rol orqali aktualizatsiya qilinadi. Bahs jarayonida "bu adolatdan emas", "halol bo'lish kerak", "vijdonan qaraylik" kabi ifodalar bevosita aksiologik pozitsiyani bildiradi. Qadriyat bu holatda kommunikativ strategiya sifatida xizmat qiladi.

Diskursiv darajada qadriyat quyidagi funksiyalarni bajaradi:

-baholovchi funksiya;

-ijtimoiy pozitsiyani belgilovchi funksiya;

-munosabat bildiruvchi funksiya;

-normativ yo'naltiruvchi funksiya.

Bu bosqichda qadriyat semantik birlik sifatida emas, balki pragmatik kategoriya sifatida namoyon bo'ladi. Ya'ni qadriyat nutqda real kommunikativ vazifani bajaradi. Lingvodidaktik jihatdan bu daraja ayniqsa muhim, chunki: o'quvchi qadriyatni passiv ravishda emas, faol nutq jarayonida qo'llaydi; bahs, dialog, esse yozish orqali shaxsiy aksiologik pozitsiya shakllanadi; qadriyat ichki e'tiqodga aylanadi.

Shu jihatdan qadriyatni faqat semantik hodisa sifatida talqin qilish yetarli emas. U til tizimida mavjud bo'lsa-da, o'zining to'liq funksional mohiyatini nutq jarayonida ochadi. Qadriyat – bu semantik asosga ega bo'lgan, ammo pragmatik jarayonda realizatsiya qilinadigan aksiologik kategoriya hisoblanadi. Demak:

leksik darajada qadriyat semantik kod sifatida; frazeologik darajada madaniy formula sifatida; diskursiv darajada esa kommunikativ strategiya sifatida namoyon bo'ladi. Ona tili ta'limida ushbu uch darajaning integratsiyasi qadriyatga yo'naltirilgan lingvodidaktik modelni shakllantirishga imkon beradi. Bu model o'quvchining: semantik sezgirligini, interpretativ tafakkurini, kommunikativ kompetensiyasini, aksiologik pozitsiyasini kompleks rivojlantiradi.

Ta'limning ijtimoiy vazifasi – shaxsni jamiyat qadriyatlari asosida shakllantirishdir. Amerikalik psixolog, faylasuf va mohir pedagog Jon Dyui ta'limni ijtimoiy tajribani uzatish mexanizmi sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, "maktab – bu demokratik qadriyatlar shakllanadigan ijtimoiy makon."[7] Atoqli psixolog Lev Semyonovich Vigotskyning "madaniy-tarixiy yondashuvini chuqurlashtirib, o'rganish – bu ijtimoiy faoliyat jarayoni degan g'oyani ilgari surgan."[8] Demak, ona tili darsida qadriyatlarni lingvistik material asosida o'zlashtirish – bu ijtimoiy tajribani ongga singdirish jarayonidir.

Lingvodidaktik jihatdan qadriyatning ta'limdagi funksiyalari:

-motivatsion funksiya;

-me'yoriy yo'naltiruvchi funksiya;

-kommunikativ kompetensiyani shakllantiruvchi funksiya;

-shaxsiy pozitsiyani rivojlantiruvchi funksiya.

Shu bois milliy qadriyatlar ona tili darsida:

matn mazmunini anglash jarayonida,

lingvistik tahlil orqali,

kommunikativ topshiriqlar asosida

[7] https://www.neh.gov/article/john-dewey-portrait-progressive-thinker (Murojaat sanasi: 25.02.2026-yil, soat 10:13)
[8] Vaxobova O'. Lev Vigotskiy va uning psixologik maktabi//Pedagoglar.org. 71-son 1-to'plam 2025-yil may, 337-341-b

integrativ metodik tizim asosida o'rgatilishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sapir E. Language: An Introduction to the Study of Speech. – New York : Harcourt, Brace and Company, 1921. – 258 p.
2. Алефиренко Н.Ф. Лингвокультурология. Ценностносмысловое пространство языка. Учебное пособие. –М.: Флинта, Наука, 2010. -224 с.
3. Маҳмудов Н. Тил ва маданият. – Тошкент : Akademnashr, 2017. – 256 б.
4. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент : Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 320 b
5. Нурмонов А. Лингвистик тадқиқот методологияси. – Тошкент : Академнашр, 2010. – 224 б.
6. Худойберганова Д. Лингвокультурология терминларининг қисқача изоҳли луғати. –Тошкент: "Turon zamin ziyo", 2015. -41 б.